



The portrayal of Shaybani Khan in "Baburnama"

Sadokat YUSUPOVA¹

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Sultan Muhammad Shaybani
Khan,

Zahiriddin Muhammad

Babur,

"Baburnama",

Samarkand literary

environment,

literature,

translation,

historicity,

critical text,

artistry

ABSTRACT

This article provides information about the life and creative journey of Sultan Muhammad Shaybani Khan, a great commander, king, and poet, as well as the history of Shaybani Khan and the Shaybanid dynasty. Specifically, the analysis of Sultan Shaybani Khan's portrayal in works such as Mirza Muhammad Haydar's "Tarikh-i Rashidi," Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama," and Kamoliddin Binoi's writings is examined based on concrete facts. The life and activities of Muhammad Shaybani Khan, his contributions to science, education, and enlightenment, as well as matters related to his creative work, are extensively explored.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp277-282>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Boburnoma" da Shayboniyxon tasviri

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Sulton Muhammad

Shayboniyxon,

Zahiriddin Muhammad

Bobur,

"Boburnoma",

Samarqand adabiy muhiti,

adabiyot,

tarjima,

tarixiylik,

tanqidiy matn,

badiiylik.

Ushbu maqolada buyuk sarkarda, shoh va shoir Sulton Muhammad Shayboniyxonning hayoti, ijod yo'li, Shayboniyxon va shayboniylar sulolasi tarixi haqida ma'lumot beriladi. Xususan, Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Kamoliddin Binoiyning asarlarida Sulton Shayboniyxon obrazining tahlil etilishi masalalari aniq faktlar asosida o'rganiladi. Muhammad Shayboniyxon hayoti va faoliyati, uning fan, ta'lim, maorifga qo'shgan hissasi ijod masalalari ham keng tadqiq etiladi.

¹ Doctoral student, Samarkand State University named after Sharof Rashidov. E-mail: sadokatyusupova1998@gmail.com

Описание Шейбани-хана в «Бабур-наме»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Султан Мухаммад
Шейбани-хан,
Захириддин Мухаммад
Бабур,
«Бабур-наме»,
самаркандская
литературная среда,
литература,
перевод,
историчность,
критический текст,
художественность.

В данной статье представлена информация о жизни и творческом пути великого полководца, царя и поэта Султана Мухаммада Шейбани-хана, а также об истории Шейбани-хана и династии Шейбанидов. В частности, на основе конкретных фактов рассматриваются вопросы анализа образа Султана Шейбани-хана в произведениях Мирзо Мухаммада Хайдара «Тарихи Рашиди», Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» и трудах Камолиддина Бинои. Подробно исследуются жизнь и деятельность Мухаммада Шейбани-хана, его вклад в науку, образование и просвещение, а также вопросы его творчества.

Istiqlol shabadasi esayotgan mustaqil yurtimizda inson va uning qadr-qimmati yuqori pog'onada turadi. Mustqailikka erishganimizdan so'ng o'z yurti, tili, madaniyat va qadriyatlar tarixini bilishga, o'zlikni anglashga qiziqish ortib bormoqda. Albatta, bu tabiiy hol bo'lib, odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, tug'ilib o'sgan Vatanining buyuk tarixini bilishga intiladi. Shunday ekan, biz o'z o'tmishimiz va tariximizni asl holidagi o'rganmog'imiz lozim. O'z nomini tarixga muhrlay olgan shaxslarning hayoti va faoliyatini, erishgan yutuq va yo'l qo'ygan xatolarini oqilona baholay olsak – bu, albatta, biz uchun, kelajak avlod uchun tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Sho'ro davrida, hatto bugungi kunga kelib ham Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon munosabatlari bir-biriga zid ravishda o'rganilib, ularni oq va qora ranglarda ko'rish, ijobiy-salbiy baho berish holatlarini uchratamiz. Bunday talqinlar haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shu jumladan, Muhammad Shayboniyxon ham o'zbek madaniyati tarixi va adabiyoti taraqqiyotida munosib o'rin tutgan sarkarda va ijodkordir. Muhammad Shayboniyxonning tarixiy va adabiy asarlardagi tasviriga e'tibor qaratish, XV–XVI asr Vatanimiz va ajdodlarimiz tarixi bitilgan tarixiy-memuar asarlarning har tamonlama keng tadqiq etilishi o'zbek xalqi tarixi va adabiyoti bilan bog'liq masalalarni yaratishga xizmat qiladi. Tarixiy-adabiy asarlarda Shayboniyxon timsolini tarixiy, adabiy jihatdan o'rganish orqali Muhammad Shayboniyxon hayoti va faoliyati, uning shaxs va ijod masalalari ham keng tadqiq etiladi. Bu esa kelajak avlodni har tamonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim estetik vazifani bajaradi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda Muhammad Shayboniyxon singari shoir, sarkarda, davlat arbobining hayoti va faoliyati mukammal aks etgan, qolaversa, o'tmish tarixiy voqeyligi to'la bayon etilgan asarlarni yangicha nuqtai nazardan o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Shoh va shoir, shayboniylar sulolasi asoschisi, buyuk sarkarda Sulton Muhammad Shayboniyxonning hayot va ijod yo'li bugungi kunga kelib Sharq va G'arb tarixchi, adabiyotshunos olimlari tomonidan ulkan qiziqishga sabab bo'lmoqda. Biroq Shayboniyxon va shoir sulolasi tarixi dunyo hamjamiyatida yetuk figuralar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Chingizxon kabi sarkardalarga nisbatan kamroq o'rganilib kelingan. Mustaqillikning birinchi choragidan to 2007–2008-yillargacha Shayboniyxon va shayboniylar sulolasining tarixini o'rganilishining chetda qolishiga bo'lgan bir

qancha sabablar mavjud. Birinchidan, mustaqillikning birinchi yillaridanoq, 1993-yilda Bobur Mirzoning 510 yilligi, 1994-yilda Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi juda keng nishonlandi. 1996-yilda esa buyuk davlat arbobi Amir Temurning 660 yillik yubileyi nishonlandi. Shu munosabat bilan temuriylar shaxsiga e'tibor oshib bordi. Natijada Zahiriddin Muhammad Boburga o'z davrida dushman bo'lgan Shayboniyxon va sulolasi tarixining o'rganilishi ortda qola boshladi. Bundan tashqari Sulton Muhammad Shayboniyxonning o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini xolis yoritish borasida 1998-yilda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov va tarixchi, adabiyotshunos olimlar bilan uchrashuv o'tkazib, unda "O'zbek" nomini Shayboniyxon bilan bog'lanilayotganligini hamda o'zbek xalqining ildizlari juda ham qadimiy ekanligini ta'kidlab o'tadi. Natijada Shayboniyxon va uning sulolasi tarixi, adabiy muhitini o'rganishga go'yo ko'proq urg'u bermaslik kabi ko'rsatmadek qabul qilingan edi. Biroq bu ko'rsatma berilmagan edi. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi bo'lgani kabi Shayboniyxon ham yetuk davlat arboblardan biri hisoblanadi. "Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz." [O'zbekiston Ruspublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Andijon viloyati "Bog'i Bobur" istirohat maskanida so'zlagan nutqidan. 05.06.2017.]

Bu kabi sabablar Shayboniyxon va sulolasi ijtimoiy tuzilishi, adabiy jarayonlarni o'rganilishiga biroz to'sqinlik qilib keldi.

Shayboniyxon va shayboniylarning ham davlatchilik tarixidagi xizmatlari beqiyos bo'lib, Muhammad Shayboniyxon siyosat maydoniga kirib kelishi ayni temuriylar saltanatining parchalanishiga to'g'ri kelgan. Bu siyosiy holatni to'g'ri va aniq baholay olgan Shayboniyxon, Movarounnahr hududlarini ishg'ol qilib, Dashti Qipchoq qabilalarini birlashtirib, o'zbek davlatini qayta bunyod etishga kirishdi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, Shayboniyxon shariat amallariga bo'ysungan va musulmonlik qoidalariga amal qilgan. Uning din arkonlaridan yaxshi xabardor ekanligini Bobur Mirzo ham ma'qullagan. Muhammad Shayboniyxon o'zini sunniylik mazhabidagi musulmonlarning himoyachisi deb hisoblagan. *Uning Qur'on tafsiri bo'yicha qorilar bilan suhbat qurgan paytlari ham bo'lgan. Ayni shu yuksak bilimi uchun zamondosh ulamolar, shoir va tarixchilar Shayboniyni "Xalifa ur-Rahmon" va "Imom az-Zamon", ya'ni "Davri imomi" va "Tangrining yerdagi xalifasi" deb ulug'lagan.*

Muhammad Shayboniy nafaqat kuch-qudratli sarkarda bo'lishi bilan birgalikda ilm-u ma'rifat homiysi va benazir ijodkor sifatida ham qudratli shaxs edi. Muhammad Shayboniyxon ijodi va faoliyati o'zi tiriklik davridanoq o'rganila boshlangan deyishimiz mumkin. Chunki XVI asrda Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlarida, Binoiy, Mulla Shodiy kabi ijodkorlar asarlarida ham Shayboniyxon timsoliga to'xtalib o'tiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bobosi Temur Abu Saiddan so'ng Turon o'lkasidagi 3 ta mintaqani, ya'ni Xorazm, Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan yagona xon – bu Shayboniyxon hisoblanadi. Shayboniyxon katta jismoniy kuch va harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs edi. Garchi xonlar avlodidan bo'lishiga qaramay, barcha muvaffaqiyatga o'z kuchi bilan erishgan sanoqli shaxslardan biri sanaladi. Muhammad Shayboniyxon ko'chmanchi o'zbek qabilalari hukmdori va Tura (G'arbiy Sibir) xoni Abulxayrxonning nabirasi, Shoh Budog' sultonning o'g'li bo'lib, 1451-yil tug'ilgan. Sulton Shayboniyxonning kelib chiqishi chingiziylarga borib taqaladi.

Bobosi Abulxayrxon Chingizxonning katta o'g'li Jo'jining beshinchi farzandi bo'lmish Shaybon naslidan edi. Shayboniyxon tug'ilgan paytda saroy ahli orasida bolaga turkiy odatlarga ko'ra ikki xil ism qo'yish kerak bo'lgan. Natijada unga arabcha Muhammad, turkiycha Ulug'bek ismi berilgan. Otasidan bolalik chog'ida yetim qolgan Shayboniyxon ba'zi rivoyatlarga ko'ra, ukasi bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalanadi. Buxoroda yashagan yillari Qur'onni juda yaxshi o'quvchi qorilardan biri Mavlono Muhammad Xitoyidan dars olgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Shayboniyxon tasviri yetarlicha tarixiy faktlar asosida keltirilgan. Otasidan erta yetim qolgan Zahiriddin, 12 yoshida otasining o'rniga Farg'ona ulusiga hokimlikka ko'tarilgan Bobur endilikda Andijon taxti uchun o'z qon-qarindoshlarining xiyonatiga uchraydi. Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa g'animlari bilan kurashishga majbur bo'ladi. Jahongir Mirzo bilan murosaga kelolmay, ukasiga Farg'ona ulusining yarmini berishga qaror qiladi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketadi. Samarqand jangida katta kuch bilan kirib kelgan Shaybobiylarga mag'lub bo'lib, Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ladi. 1504-yilda Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janub tomon harakatlanib, Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatadi. Barchamizga ma'lumki, Bobur adabiyot va adabiy kechalarni xush ko'rgan va jon-u dili bilan ishtirok etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur hech bir adabiy kechalarda yoki shoirlar xususida hech bir o'rinda bir yoqlama fikr yuritmagan. Boburnomada: "Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisida yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra Shayboniyxon qoshig'a kelib edi, filjumla rioyat qilub edi. Shayboniyxon otig'a bir turkiy masnaviy bitibdur. "Ramali musaddasi maxbun" vaznidakim "Subha" vazni bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qig'on kishi Muhammad Solihning she'ridan bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayt budur:

*Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,
Qildi Farg'onani tanbalxona".*

Bobur Muhammad Solihni Shayboniyxonning tomoniga o'tib ketgan bo'lsa ham, shoir Muhammad Solih haqida ham haqiqatni haqiqatligicha ifodalab bergan. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:270.]

1500-yilning iyul oyidan Muhammad Solih Shayboniyxonning saroy shoiriga aylanadi. [Ahmedov B., 1994: 216.] Samarqandni qo'lga kiritgandan so'ng Shayboniyxonning mulozimiga aylanadi: "Samarqand Muhammad Shayboniyxon qo'lga kirgach, unga mulozim bo'lib, xonning saltanat saroyi ichkilari qatorida xizmatda turdi". [G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir, 2013.]

Zahiriddin Muhammad Bobur mushohadalarining birida Shaybobiylarga atab yozilgan dostonning vaznini aniqlashi bilan birga, uning mazmuni haqida tanqidiy fikrlarini keltirib o'tgan. "Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'ay." ["Boburnoma", 1979:139.] Akademik B.Valixojayev Muhammad Solihning bu masnaviysiga shunday deydi: "Ammo Bobur ba'zan (qiziqqonlik bilan) u yoki bu shoir ijodi va asari to'g'risida xulosa ham chiqaradi. "Shayboniynoma"dan tanho bir baytini ma'qullaydi-da, qolgan hamma qismlarini bisyor sust va furud deb aytadi. Aslida esa Muhammad Solihning mazkur asari shoir

dunyoqarashidagi cheklanganliklar bilan belgilanuvchi nuqson va kamchiliklardan qat'iy nazar, o'zbek epik poeziyasi, realistik tasvir uslubi tarixida ovziga xos mavqeni egallashi adabiyotshunosligimiz tomonidan isbot etilgandir" [O'zbek adabiyoti tarixi, 1984:77]

"Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" kitobida Herman Vamberi Muhammad Solih haqida shunday izoh qoldirgan: "Keyinchalik Movarounnahrda ketib, Sulton Mahmud saroyi doirasida e'tibor qozongan va nihoyat, Shayboniy Muhammadxon uni saroy shoiri qilib olgan." [Herman Vamberi, 1990:73.]

Darhaqiqat, shoir Muhammad Solih Shayboniyxon hayoti va ijod yo'lini yoritish bilan bir qatorda Shayboniyxon uchun yirik masnaviy yaratadi. Bu masnaviyi orqali temuriyzodalar sulolasiga adovati borligini bildirar, xalq orasida qasddan kichik janrlar vositasida ularni hajv qilib yurar edi. Bu esa Boburning Muhammad Solih ijodiga nisbatan xolis xulosa qilishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Lekin Muhammad Solihning she'riyati, asarlari hattoki raqibi Shayboniyxonga atab yozilgan "Shayboniynoma" asari ham Navoiy, Bobur tomonidan birdek ijobiy baholangan. Shuning uchun ham kanadalik shaqrshunos olimi Mariya Sabtelni Muhammad Solihni o'z davrining professional shoiri deb ataydi.

Muhamad Shayboniyxon devonnavis shoir bo'lib, uning bizgacha bir devoni yetib kelgan. Shoir sifatida Shayboniyxon, Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan she'rlar yozgan, kamdan-kam ijodkorga nasib etadigan rutba – Devon yozishga muvaffaq bo'lgan.

Devonning yaqona qo'lyozmasi mavjud bo'lib, hozirda Turkiyada saqlanib kelinmoqda. Devon g'azal, ruboiy, qit'a, fard, tuyuq, masnaviy kabi janrdagi she'rlardan iborat. Natijada bu devonga asoslanib, chet ellik o'zbek olimi Temur Xo'ja o'g'li XX asrning 70-yillarida dissertatsiya yozgan. Dissertatsiya 200 sahifadan iborat bo'lib, unda Shayboniyxon hayot yo'li, g'azallari va "Bahrul hudo" nomli masnaviysi tahlil etilgan. Bundan tashqari Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga atab pand-nasihat xarakteridagi asari ham mavjuddir. Muhammad Shayboniy adabiy merosining asosiy qismini urush tafsilotlari, hayotiy muammolar, darvishlik kechinmalari bilan yo'g'rilgan diniy-tasavvufiy qarashlar aks etgan g'azallar tashkil etadi. Shayboniyxonning she'r va g'azallari xalq orasida keng tarqalgan va mashhur bo'lgan.

Roviylarning xabar berishiga qaraganda, Shayboniyxonning islom ulamolariga bo'lgan hurmati yuksak darajada bo'lgan. Harbiy safarlarida o'zi bilan kichkina go'zal kutubxonasini olib yurgani va Amir Temur kabi Damashq va Halab ulamolari bilan diniy munozaralarga qatnashgani haqida ma'lumotlar mavjud. Mirzo Bobur ham Shayboniyxonning islomiy bilimi yuksak ekanligini tan oladi. Shayboniyxon yuksak mahorat va did bilan madaniyat, morif sohasida temuriylardan ibrat olib, Samarqand, Toshkent va Buxoroda madrasa, masjidlar barpo etadi. davlat boshqaruvida "suyurg'ol" tizimini joriy qilib, davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlaydi. Uning ta'lim va maorif sohasidagi islohotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ko'p bosqichli o'qitish tizimini joriy qiladi. Ta'limda quyi va yuqori bosqich tizimini joriy qilib, quyi bosqichda maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilingan bo'lib, 2 yil maktabda o'qigach, o'qish madrasada davom ettirilgan. Xon bilimli, ziyoli kishilarni qadrlagan, ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirishga harakat qilgan. Shayboniyxonning bu kabi ishlari barchani e'tiboriga sazovor bo'ladi. Natijada, Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi uzoq yillardan buyon shakllanib qolgan tushunchaga chek qo'yish lozim. Bir xalq va millatga mansub ikki buyuk hukmdorning tarixdagi o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Andijon viloyati «Bog'i Bobur» istirohat maskanida so'zlagan nutqidan. 05.06.2017.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T.: Fan, 2019. – 5 b.
3. Muhammad Solih. Shayboniynoma. –T.: O'zSSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 320 b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Tosh.: O'qituvchi, 2008.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: O'qituvchi, 1994.-B.216.
6. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O'zbekiston, 2013. –B.1094.
7. O'zbek adabiyoti tarixi, 3-jild. Toshkent: Fan.1984.
8. Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – T.: G'.G'.ulom nomidagi ASN, 1990. -B 73.
9. Sabtelni, M. The poetic circle at the court of Timurid Sultan Husain Baiqara and its political significiance. – Harward, 1979.
10. Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. – T.: Ilm-fan va ma'naviyat, 2024. – B.310.
- Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Monografiya